



AKVAREL BO'YOQDA UY-RO'ZG'OR BUYUMLARIDAN  
TASHKIL TOPGAN NATYURMORT ISHLASH USULLARI

**Sharafbayev Ulug'bek Muhamedovch**

*Qo'qon Davlat Universiteti o'qituvchisi Haydarov Jamshid Umidjon o'g'li Qo'qon  
Davlat Universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 02 24-guruh 1-  
kurs talabasi*

[jamshidjonhaydarov98@gmail.com](mailto:jamshidjonhaydarov98@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolamda asosan akvarel texnikasida uy-ro'zg'or buyumlari asosida natyurmort tasvirini ishlash jarayonidagi bosqichlar, estetik va metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Akvarel bo'yoqlarining o'ziga xosligi, kompozitsiya qurish qoidalari, ranglar uyg'unligi va pedagogik samaradorlik jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tasviriy san'at ta'limida akvarel texnikasini natyurmort janrida qo'llashning muhim o'rni va metodikasini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** Akvarel, natyurmort, uy-ro'zg'or buyumlari, tasviriy san'at, kompozitsiya, yengil bo'yoq, pedagogik metodika, estetik tarbiya, yorug'lik va soya.

**Annotation:** The article analyzes the stages, aesthetic and methodological approaches in the process of creating a still life image based on household items, mainly in watercolor technique. The uniqueness of watercolor paints, composition building rules, color harmony and pedagogical effectiveness are highlighted. The results of the study indicate the important role and methodology of using watercolor technique in the still life genre in fine arts education.

**Keywords:** Watercolor, still life, household items, fine arts, composition, light paint, pedagogical methodology, aesthetic education, light and shadow.

**Аннотация:** В статье анализируются этапы, эстетические и методические подходы в процессе создания натюрмортного изображения на основе предметов быта, преимущественно в технике акварели. Выделены своеобразие акварельных красок, правила построения композиции, цветовая гармония и педагогическая эффективность. Результаты исследования свидетельствуют о важной роли и методике использования акварельной техники в жанре натюрморта в изобразительном художественном образовании.

**Ключевые слова:** Акварель, натюрморт, предметы быта, изобразительное искусство, композиция, световая краска, педагогическая методика, эстетическое воспитание, свет и тень.

### Kirish

Tasviriy san'at inson ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning asosiy janrlaridan biri – natyurmort, ya'ni jonsiz buyumlarning badiiy ifodasi, san'at ta'limida muhim o'rin egallaydi. Bu janr orqali o'quvchilar shakl, rang, kompozitsiya va yengil





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ifodani o'rganadilar. Ayniqsa, akvarel texnikasida ishlangan natyurmortlar nafisligi, ranglar ohangdorligi va havodorligiga ko'ra o'quvchilarning ijodiy dunyoqarashini kengaytiradi. Uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortlar esa kundalik hayot estetikasi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi bois ayniqsa dolzarbdir. Akvarel texnikasining xususiyatlari haqda gaplashamiz. Akvarel (fransuzcha "aquarelle") — suvda eritilgan bo'yoqlar yordamida ishlanadigan tasvir texnikasi bo'lib, eng shaffof va nozik san'at vositalaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy afzalliklari bo'lib bular: Yengil va havodor tuslar bilan ishlash imkoniyati; Bir nechta qatlamda ishlashda shaffoflikni saqlab qolish; Yorug'lik va soya o'yinlarini yumshoq aks ettirish. Akvarel texnikasida ishlaganda har bir qatlam qurib borishi kerak, bu esa rassomdan sabr-toqat va puxta rejalashtirilgan harakatlarni talab qiladi. Natyurmort kompozitsiyasi va uy-ro'zg'or buyumlari tanlovi. Natyurmort kompozitsiyasini yaratishda buyumlar bir-biriga kompozitsion, rang va shakl jihatdan uyg'un tanlanishi kerak. Uy-ro'zg'or buyumlari orasida choynak, stakan, qoshiq, likopcha, non, mevalar solingan savat, idishlar, lampochka yoki kitoblar kabilar ko'p qo'llaniladi. Ushbu buyumlar yordamida kompozitsiya quyidagi asoslarda quriladi: Markaziy obyekt tanlanadi; Yordamchi elementlar orqali kompozitsiya muvozanatga keltiriladi; Fon va yorug'lik manbai aniqlanadi. Bu jarayonda fazoviy holat, masofa va shakllarning bir-biriga nisbati aniq aks ettirilishi zarur. Natyurmortni akvarelda ishlash bosqichlari Akvarel texnikasida natyurmort ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

**Eskiz tayyorlash:** Yengil grafit qalam yordamida asosiy shakllar qog'ozga tushiriladi. Bu bosqichda proportsiyalar, obyektlar joylashuvi, kompozitsiya markazi aniqlanadi.

**Asosiy rang qatlamini berish:** Buyumlarning asosiy rangi eng yengil ohangda bo'yaladi. Suv miqdori ko'proq, bo'yoq esa kamroq bo'ladi. Bu qatlamda umumiy rang muvozanati yaratiladi.

**Detallashtirish va rang ohangini kuchaytirish:** Har bir buyumga xos tus, yorug'lik-soya munosabatlari, shaffoflik, sirt tuzilmasi ifodalanadi. Metall yoki keramika buyumlarida nur akslari alohida e'tibor talab qiladi.

**Soya va fon ishlash:** Kompozitsiyani bir butun holatda birlashtirish uchun fon yengil tusda ishlanadi. Soya qismlar o'ta ko'p bo'yoq bilan emas, balki ustma-ust yotqizilgan qatlamlarda beriladi.

**Metodik yondashuv va pedagogik ahamiyati haqda aytsam:** Akvarel texnikasi yordamida natyurmort ishlash jarayoni o'quvchilarni: ijodiy tafakkurga undaydi; kuzatuvchanlik va detallarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi; rang sezgirligi, tasviriy idrokni kuchaytiradi; mashq va sabr-toqatni shakllantiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu mashg'ulotlar o'quvchilarda real hayotni badiiy tasavvur bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Natyurmort ishlash orqali ular ko'z bilan ko'rish, esda saqlash, qog'ozda tasvirlash faoliyatini kompleks o'zlashtiradilar.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Xulosa.** Xulosa qilib aytishim mumkinki akvarel bo'yoqda uy-ro'zg'or buyumlari ishtirokidagi natyurmortni ishlash san'at ta'limining o'quvchilar uchun eng estetik, amaliy va pedagogik jihatdan boy yo'nalishidir. Bu texnika orqali o'quvchilar nafaqat tasviriy ko'nikmalarni egallaydi, balki hayotiy buyumlar orqali san'atga bo'lgan munosabatini ham shakllantiradi. Akvarelning shaffofligi, yengil yondashuvi va ko'rinishlardagi noziklik uni ayniqsa ta'limda samarali vositaga aylantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raximova N. Tasviriy san'at asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Baxromov M. Akvarel san'ati asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Sharipova L. Natyurmort va kompozitsiya asoslari. – Buxoro: BDU, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablari uchun Tasviriy san'at fani dasturi, 2022.
5. Sayfullayeva D. San'atni o'qitishda metodik yondashuvlar. – Samarqand, 2018.
6. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." International Journal on Orange Technologies 3.12 (2021): 211-216.
7. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 11. 2022.
8. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.
9. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.
10. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

